



## BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING O'QISH SAVODXONLIGINI RIVOJLANTIRISH METODLARI

Usmonova Gulnoza Jaloliddin qizi,  
Guliston davlat pedagogika instituti talabasi

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.18830001>

**Annotatsiya.** Ushbu tezida boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish savodxonligini shakllantirish va rivojlantirishning asosiy metodlari, o'qish savodxonligi o'quvchilarning matni to'g'ri o'qish, mazmunini tushunish, tahlil qilish va amaliy faoliyatda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirishi yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** o'qish savodxonligi, boshlang'ich ta'lim, pedagogik metodlar, interfaol usullar, tushunib o'qish.

**Аннотация.** В данной работе рассматриваются основные методы формирования и развития навыков чтения у учащихся начальной школы, а также развитие навыков чтения у учащихся, позволяющих им правильно читать текст, понимать его содержание, анализировать его и применять в практической деятельности.

**Ключевые слова:** грамотность чтения, начальное образование, педагогические методы, интерактивные методы, понимание прочитанного.

**Annotation.** This thesis discusses the main methods for forming and developing reading literacy in primary school students, and the development of reading literacy in students' skills to read the text correctly, understand its content, analyze it, and apply it in practical activities.

**Key words:** reading literacy, primary education, pedagogical methods, interactive methods, reading comprehension.

### KIRISH

Boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchilarning bilim olish faoliyatida muhim o'rin tutadi. Aynan shu davrda o'qish savodxonligi shakllanib, keyingi ta'lim jarayonining poydevori yaratiladi. O'qish savodxonligi matni o'qish bilan cheklanmay, balki uning mazmunini tushunish, baholash va undan foydalanish ko'nikmalarini ham o'z ichiga oladi. Zamonaviy ta'lim jarayonida o'qituvchilarning samarali metodlardan foydalanishi o'quvchilarning mustaqil fikrlashini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shu sababli boshlang'ich sinflarda o'qish savodxonligini rivojlantirish metodlarini o'rganish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Metodik adabiyotlar tahlili natijasida shunga amin bo'ldikki, boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini rivojlantirishda kuzatish, pedagogik tahlil, taqqoslash va umumlashtirish metodlaridan foydalanish samarali hisoblanadi.

Bunda asosiy metodlar quyidagilar sifatida ajratib olinadi:



- Tushuntirish va namuna ko'rsatish metodi — o'qituvchi tomonidan to'g'ri o'qish namunasi beriladi;

- Savol-javob metodi — matnni tushunishni aniqlash va mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi;

- Interfaol metodlar — guruhlarda ishlash, rollarga bo'lib o'qish, muhokama;

- Takrorlash va mustahkamlash metodi — o'qish malakasini rivojlantirish va lug'at boyligini kengaytirish.

O'rganilgan materiallar shuni ko'rsatadiki, turli metodlarning uyg'un qo'llanilishi o'quvchilarning o'qish savodxonligini rivojlantirishda yuqori samaradorlikka ega. Tushuntirish metodi o'quvchilarda to'g'ri o'qish malakasini shakllantiradi. Savol-javob metodi orqali o'quvchilarning matnni tushunish darajasi oshadi. Interfaol metodlar o'quvchilarni faol ishtirok etishga undab, ularning nutqiy va ijtimoiy ko'nikmalarini rivojlantiradi. Takrorlash metodlari esa o'qish tezligi va aniqligini yaxshilaydi.

Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, boshlang'ich sinflarda o'qish savodxonligini rivojlantirishda metodlarni kompleks qo'llash zarur. Har bir metod o'ziga xos natija beradi, ammo ularning integratsiyasi ta'lim samaradorligini oshiradi. O'qituvchi o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda metodlarni tanlashi lozim. Shuningdek, zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshiradi va ta'lim sifatini yaxshilaydi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarni matnli o'qitish jarayonida, ularning matnni o'zlashtirishi, o'qishi hamda shu matndagi g'oya asosida mantiqiy fikr yuritishi zaruriy omildir. Bu qobiliyatlari takomilida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'zini o'zi rivojlantirishi, individual tarzda fikr yuritishlari muhimdir. Bunday vaqtda boshlang'ich sinf o'qituvchisi tomonidan matnli o'qitishni rivojlantirish usullari va metodlarini ishlab chiqishi maqsadga qo'llanilishi kerak.

Informativ-kommunikativ metod. Bunda o'quvchilar matnda berilgan ma'lumotni ifodali o'qib, undagi ifodalangan g'oyani og'zaki ravishda ikki guruhga bo'linib, gapirib berishlari kerak.

### **XULOSA**

Xulosa sifatida shuni aytishimiz mumkinki, boshlang'ich sinflarda o'qish savodxonligini rivojlantirish o'quvchilarning keyingi ta'lim bosqichlarida muvaffaqiyatli o'qishi uchun muhim omil hisoblanadi. Turli pedagogik metodlardan uyg'un foydalanish o'qish malakasini rivojlantiradi, mustaqil fikrlashni shakllantiradi hamda o'quvchilarning bilim olish jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiladi.



## Foydalangan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ishmuhamedov R., Yuldashev M. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent, 2017.
2. OECD. PISA Reading Literacy Framework. – Paris, 2019.
3. Qosimova K., Matchonov S. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent, 2009.
4. Tolipov O'., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning nazariy asoslari. – Toshkent, 2010.
5. Utanbayeva, D. (2025). Boshlang'ich sinf o'quvchilarini matnni tahlil qilishga o'rgatishda zamonaviy yondashuvlarning ahamiyati. *Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali*, 3(9).
6. Utanbayeva, D. (2024). Boshlang'ich sinf "o'qish savodxonligi" darslarida matn ustida ishlashda savol-topshiriqlardan foydalanish samaradorligi. *Modern Science and Research*, 3(10), 485-490.
7. G'afforova T. Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi. – Toshkent, 2015.

